

## Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-mart oylarini uchun


- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra viloyatda 2 774 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarining katta qismi quyidagilarga:

- boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 629 ta (22,7 %);
- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish – 575 ta (20,7 %);
- tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat – 218 ta (7,9 %);
- mebel ishlab chiqarish – 183 ta (6,6 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 173 ta (6,2 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 113 ta (4,1 %) to'g'ri keldi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalarini ulushi (2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra)



## II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 73 503,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>73 503,9</b>	<b>105,3</b>
Navoiy sh.	67 611,5	105,1
Zarafshon sh.	208,6	107,3
G'ozg'on sh.	44,7	113,6
tumanlar:		
Karmana tumani	2 890,9	102,3
Konimex tumani	220,6	130,4
Qiziltepa tumani	389,8	107,6
Navbahor tumani	281,7	102,1
Nurota tumani	120,2	109,1
Tomdi tumani	64,4	131,6
Uchquduq tumani	174,7	107,4
Xatirchi tumani	580,5	118,1

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 66 013,3 ming so'm tashkil etdi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Navoiy shahrida (394 132,5 ming so'm), Karmana tumanida (19 922,4 ming so'm) hamda Konimex tumanida (5 989,4 ming so'm) aholi jon boshiga ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Tomdi tumanida (132,1 %), Konimex tumanida (131,7 %), Xatirchi tumanida (116,6 %) hamda G'ozg'on shahrida (112,4 %) yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
2026-yil yanvar-mart oylarida



**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2026-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 63 836,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (86,8 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 7 059,2 mlrd so'm (9,6 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 483,4 mlrd so'm (3,4 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 124,7 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi  
2026-yilning yanvar-mart oylarida



### III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 36,8 tonna Tvorog va tvorogdan mahsulotlar (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 55,9 % ga oshgan), 152,0 ming tonna sement (67,9 % ga kamaygan) hamda 128,5 ming t fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar (23,6 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart*	2026-yil yanvar-mart
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	7,6	10,8	1,6
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	21,5	23,6	36,8
Yogurt, tonna	0,6	4,7	2,6
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolkalar, ming d	883,0	342,7	546,0
Azot, ming m3	2,5	83,9	79,0
Argon, ming m3	389,1	396,6	331,2
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar, ming t	132,1	103,9	128,5
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	2,3	3,0	3,2
Portlandsement, ming t	522,5	473,5	152,0

*\*2024-2026-yillarning yanvar-mart oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

#### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 88,6 % (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,2 % (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,6 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025-yilning yanvar-mart oylarida 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 5,5 % (7,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 90,6 % (86,1 %), quyi texnologiyali 3,8 % (6,4 %)ni tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 100,4 % ni tashkil etdi, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 86,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart*	2026-yil yanvar-mart
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	3 221,5	2 544,8	2 556,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 723,5	1 567,5	1 351,2

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 12,0 % ga, oqava suvlarning shlami 69,9 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 48,5 % ga ko'paygan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart*	2026-yil yanvar-mart
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	12,4	84,4	94,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	33,5	14,8	22,0
Oqava suvlarning shlami, mlrd so'm	0,6	9,9	16,9

\*2024-2026-yillarning yanvar-mart oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 029,3 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 6,7 % ni tashkil etgan.



## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indeksarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>  
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:  
Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

Ijrochi:  
A. Suyarov  
79 223-33-29 (8510)

Manzil:

